

Toshmurodov Mirolim Ismoil o'g'li,
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti
tayanch doktoranti



G'ARB FALSAFIY TA'LIMOTLARIDA MUROSA TUSHUNCHASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI: EVOLYUTSION RIVOJLANISHI

Annotatsiya. O'rta asrlarda murosa tushunchasi falsafiy, diniy va axloqiy tizimlarda muhim o'rin tutib, uning mazmuni insonlar o'rtasida tinchlik, adolat va hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Bu davrda murosa tushunchasi, asosan, diniy-falsafiy, axloqiy (ijtimoiy munosabatlardagi muvozanat) hamda siyosiy (kelishmovchiliklarni hal qilish vositasi) sohalarda shakllangan. Mazkur tushunchaning evolyutsion rivojlanishi turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali chuqurlashgan va o'z davrining ijtimoiy barqarorligida muhim omil bo'lgan.

Аннотация. В средние века понятие компромисса занимало важное место в философской, религиозной и моральной системах, а его содержание важно, поскольку оно направлено на обеспечение мира, справедливости и согласия между людьми. В этот период концепция примирения формировалась преимущественно в религиозно-философской, этической (равновесие в общественных отношениях) и политической (средство разрешения споров) сферах. Эволюционное развитие этой концепции углубилось в результате взаимодействия различных культур и цивилизаций и явилось важным фактором социальной стабильности своего времени.

Annotation. In the Middle Ages, the concept of compromise occupied an important place in philosophical, religious and moral systems, and its content was significant in that it was aimed at ensuring peace, justice and harmony between people. During this period, the concept of compromise was mainly formed in the religious-philosophical, moral (balance in social relations), and political (means of resolving disputes) spheres. The evolutionary development of this concept was deepened by the interaction between different cultures and civilizations and was an important factor in the social stability of its time.

Tayanch soʻzlar: *murosa, konflikt, shaxsiy va jamoaviy manfaat, axloqiy qadriyat, axloqiy murosa, axloqiy tanlov va axloqiy dilemma.*

Ключевые слова: *компромисс, конфликт, личный и коллективный интерес, моральная ценность, моральный компромисс, моральный выбор и моральная дилемма.*

Key words: *compromise, conflict, personal and collective interest, moral value, moral compromise, moral choice and moral dilemma.*

Kirish. Oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropaning ijtimoiy muhiti murakkab va ziddiyatli edi. Bu, birinchidan, ijtimoiy muhitda feodalizmning vujudga kelishi natijasida jamiyatda aholi qatlamining tabaqalanishi, huquq va imtiyozlar bilan bogʻliq boʻlgan iyerarxiya tizimi sunʼiy ravishda yaratildi. Ikkinchidan, cherkov hayotning barcha jabhalariga taʼsir koʻrsatadigan kuchli institut sifatida shakllandi. Uchinchidan, shaharlarning tez surʼatlarda rivojlanishi, qishloq aholisining shaharlarga intilishi ijtimoiy tabaqalar oʻrtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqara boshladi. Toʻrtinchidan, salib yurishlari fonida Yevropaning ichida zoʻravonlik toʻqnashuvlari kelib chiqdi. Beshinchidan, ayollar huquqlarining cheklanishi, kundalik hayotda ularga nisbatan ishlatilgan turli tazyiq va zoʻravonliklar oilalarning beqarorligiga sabab boʻldi. Bu esa, oʻz navbatida, jamiyat ijtimoiy muhitining barqarorligiga taʼsir qildi. Oltinchidan, universitetlarda ilm-fan va falsafa rivojlanayotgan bir paytda aholining asosiy qatlami xurofot va anʼanaviy eʼtiqodlarga bogʻlanib qolishgandi. Ilmiy muhitda diniylik va dunyoviylik masalasi kabi ziddiyatlarga olib keldi. Oʻrta asrlar Gʻarb falsafiy taʼlimotlarida murosa tushunchasi, asosan, din, aql va axloq oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar kontekstida shakllangan. Bu davrda murosa tushunchasi koʻpincha teologik va metafizik muhokamalar doirasida muhokama qilingan. Murosaning evolyutsiyasi Gʻarb falsafasida diniy qadriyatlar bilan aqliy asoslar oʻrtasidagi muvozanatni izlash jarayonida namoyon boʻlgan.

Sxolastik falsafa davrida (oʻrta asrlarda) murosa mantiq va teologiya oʻrtasidagi oʻzaro munosabatni tushunish uchun muhim tushuncha boʻlgan. Sxolastik mutafakkirlar aqliy tahlil vositasida diniy hukmlarni tushuntirishga harakat qilishgan. Murosa aqliy va teologik asoslarni kelishtirish uchun asosiy tushuncha sifatida eʼtirof etilgan. Oʻrta asr Gʻarb falsafiy taʼlimotlarida murosa tushunchasi, asosan, diniy teologiyadan manba olgan boʻlsa-da, uning aql, adolat va ijtimoiy tinchlik bilan bogʻlangani uning falsafiy evolyutsiyasini taʼminladi. Bu tushuncha

keyingi davrlardagi gumanizm va Renessans falsafasiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Maqsad va uni asoslash. O'rta asrlarda G'arb falsafasida murosaga kelish muammosi o'rta asr faylasuflari va ilohiyotshunoslari tomonidan muhokama va mulohaza mavzusi bo'lgan. Bu davrda nasroniy axloqi va ta'limoti murosaga kelish haqidagi qarashlarga ta'sir ko'rsatdi. O'rta asrlar falsafasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan rus faylasufi V.S.Styopin o'rta asrlarda murosas masalasi murakkab ko'p qirrali jarayon ekanligini quyidagicha izohlagan: "O'rta asr falsafasiga Platon va Aristotel kabi antik mutafakkirlar qarashlari hamda nasroniy ilohiyotshunosligi katta ta'sir ko'rsatgan" [1]. Bu esa ratsional bilim va e'tiqod o'rtasida murosas zaruriyatini yuzaga keltirdi.

O'rta asrlar G'arb falsafasida murosas muammosi asosan axloq va siyosat, shuningdek, aql va e'tiqodning o'zaro kurashi ta'siri doirasida kechgan. Bu davrda faylasuflar turli ta'limotlar, an'analar va manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qildilar.

O'rta asrlar G'arb falsafasi vakillaridan Avreliy Avgustin "o'z ta'limotida xristianlikni platonizm bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan, birinchi faylasuflardan hisoblanadi" [2]. U haqiqiy bilim Xudodan keladi, deb ta'kidladi, lekin aqlning muhimligini ham tan oldi. Avgustin: Xudo beradigan ichki yorug'likning muhimligini ta'kidladi va haqiqiy bilim imon orqali keladi, deb ishondi.

Averliy Avgustindan farqli o'laroq Foma Akvinskiy "xristian ilohiyotini Aristotel falsafasi bilan sintez qilishga harakat qildi" [3]. U aql va e'tiqod birga yashaydi va bir-birini to'ldiradi degan g'oyani ilgari surdi. Jamiyat hayotida siyosiy murosaga kelish mushkul hodisa edi, sababi, cherkov va dunyoviy hokimiyat o'rtasida ziddiyatlar hamda cherkov hokimiyati va dunyoviy hukmdorlarning huquqlari o'rtasidagi muvozanatni topish murosas kaliti hisoblangan. O'rta asr faylasuflari hayotiy turmush tarzida shaxsiy manfaat va jamoat manfaati o'rtasidagi ziddiyatlarda axloqiy kelishuv va murosaga erishish dolzarb masalalardan biri edi.

O'rta asrlarning mashhur faylasufi va siyosiy arbobi Nikollo Makiavelli inson tabiatida murosas masalasi murakkab ekanligini quyidagicha izohlagan: "insonning hamma zamon va makonlar uchun universal tabiati mavjud emas" [4] deb hisoblagan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, insonning tabiati u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning xarakterini belgilab beradi. Makiavelli

O'rta asrlar G'arb falsafasida murosas muammosi asosan axloq va siyosat, shuningdek, aql va e'tiqodning o'zaro kurashi ta'siri doirasida kechgan. Bu davrda faylasuflar turli ta'limotlar, an'analar va manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qildilar.

***Makiavelli
“Hukmdor”
asarida hokimiyatni
saqlab qolish va
mustahkamlash
uchun har qanday
vositani qo‘llash
mumkinligini
ta’kidlaydi.
Faoliyati davomida,
u ko‘pincha
siyosiy murosani
hokimiyatni
mustahkamlashning
vositasi deb bilgan.
Uningcha, hukmdor
murosaga bormasa,
dushmanlar
ko‘payishi
va hokimiyat
zaiflashish xavfi
tug‘iladi.***

fikricha, shaxs shakllanishida tarbiya, ijtimoiy muhit va oxirida irsiyat rol o‘ynaydi. Inson yashayotgan jamiyati qanday bo‘lsa, inson ham shunday shakllanadi va tarbiyalanadi. Inson tabiatida xudbinlik ustun bo‘lsa, demak, buning sababini jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlardan qidirish kerakligini uqtiradi. Makiavellining “murosa” va “axloqiy murosa” haqidagi qarashlari, asosan, realistik va pragmatik yondashuv asosiga qurilgan. U axloqni siyosatdagi asosiy omil deb bilmagan, balki murosani amaliy harakatning natijasi deb hisoblagan.

Makiavelli “Hukmdor” asarida hokimiyatni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har qanday vositani qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. Faoliyati davomida u ko‘pincha siyosiy murosani hokimiyatni mustahkamlashning vositasi deb bilgan. Uningcha, hukmdor murosaga bormasa, dushmanlar ko‘payishi va hokimiyat zaiflashish xavfi tug‘iladi. Shu sababli Makiavelli, pragmatik murosa tarafdori bo‘lgan. Makiavelli ayniqsa, “axloqiy murosa” haqidagi qarashlari qiziq tarzda ifodalangan. “Axloqiy qadriyatlarni siyosat uchun cheklov deb hisoblagan. Hukmdor davlat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi va ba‘zan axloqiy tamoyillardan chetga chiqadi” [5]. Biroq u axloqni butunlay rad etmagan, balki axloqiy tamoyillarni vaziyatga qarab qo‘llashni tavsiya qilgan.

Makiavelli axloqiy murosaga pragmatik yondashgan, ya’ni uning fikricha, siyosatchi yoki hukmdor axloq qoidalarini o‘z maqsadlariga moslashtirishi kerak. Siyosatning asosiy vazifasi hokimiyatni saqlash va xalqni boshqarish bo‘lgan, bu yo‘lda murosa va axloqiy cheklovlarni buzish ba‘zan zarur bo‘ladi, deb hisoblagan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bizning fikrimizcha, O‘rta asrlarda G‘arb falsafasida murosaga kelish muammosining asosiy xususiyatlari quyidagi ko‘rinishdan iborat bo‘lgan.

Insonda murosaga kelishda tanlov muhim jihat hisoblangan. Faylasuflar va ilohiyotchilar sodiqlik va qat’iyatlilik tamoyillarni amaliy hayot talablari bilan qanday uyg‘unlashtirish haqida doimo bahs olib borgan. Axloqiy qadriyatlarni anglashda o‘rta asr faylasuflari va ilohiyotshunoslari bir-biriga zid bo‘lgan axloqiy qadriyatlarga urg‘u berishgan. Turli axloqiy tamoyillar o‘rtasidagi muvozanatga qanday erishish va murosaning benuqsonligini saqlab qolish masalasi muhokamaning muhim jihati hisoblangan. Jamiyat boshqaruvida hokimiyatning o‘rni, o‘rta asrlarda axloqiy munosabatlarni shakllantirishda, odamlarning xulq-atvori va unga amal qilish qoidalari cherkov tomonidan belgilab berilgan. Murosa va yon berish zarurati bilan yo‘l-yo‘riqni qanday uyg‘unlashtirish kerakligi

haqidagi savol faylasuflarning asosiy muammolaridan biriga aylangan. Bu esa faylasuflar qanday shartlar murosa adolatli yoki adolatsiz ekanligi va bunda qanday axloqiy tamoyillarga amal qilish kerakligi haqida doim bosh qotirgan.

O'rta asrlarda G'arb falsafasida murosa muammosi murakkab va serqirra masala bo'lib, axloq, sadoqat, adolat va hokimiyatning turli jihatlarini chuqur tahlil qilish va ko'rib chiqishni talab qilgan. O'rta asrlar G'arb falsafasidagi murosa tushunchasi, axloqiy, siyosiy, pragmatik va dialogik jihatlarini qamrab olgan. Qanday holda va qay yo'sinda bo'lmasin, murosa turli nuqtayi nazarlarda hurmatni saqlash, nizolarni hal qilish va kelishuvga erishishda muhim rol o'ynagan.

Murosaning dialektik xususiyati qarama-qarshiliklari va nizolarni hal qilishda namoyon bo'ladi. "Konflikt, aslida, mavjud tamoyillar va pragmatik foyda olish o'rtasidagi qarama-qarshilikdan kelib chiqqan. Murosa ko'pincha yon berish va turli manfaatlarni murosaga keltirishni o'z ichiga oladi, bu esa aniq tamoyillar va qadriyatlarga zid kelgan" [6]. Konfliktning dialektik tomoni axloqiy tamoyillarni saqlash va umumiy yechimlarni topish zarurati o'rtasidagi muvozanat hisoblangan.

Murosaga kelishda shaxsiy e'tiqodlar va jamoat manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish qiyin masala hisoblangan. Murosani qabul qilish kelishuvga erishish va kelishmovchiliklarni hal qilishning bir usuli hisoblanadi. Axloqiy dilemmalar murosa kontekstida ikki axloqiy jihatdan ahamiyatli harakat yo'nalishini tanlash kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Aynan masalaning dialektik jihati bu qadriyatlarga hurmat va yon berishga tayyorlikni o'zida mujassam etgan maqbul yechimni topish hisoblangan.

Shunday qilib, murosaga kelish va axloqiy murosaga kelishning dialektik xususiyatlari nizoning qarama-qarshi tomonlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarda, turli nuqtayi nazarlarning sintezini izlashda va jamiyatda uyg'unlikka erishish istagida namoyon bo'ladi.

Murosaning sinergetik xususiyatlari quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Murosa yangi g'oyalar, yechimlar va ilgari raqobatdosh manfaatlar tufayli mavjud bo'lmagan rivojlanish yo'llari paydo bo'lishiga yordam berishi mumkin. Tomonlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida yangi imkoniyatlar va istiqbollar paydo bo'lishiga olib keladigan sinergiya yuzaga kelishi mumkin.

***O'rta asrlarda
G'arb falsafasida
murosa muammosi
murakkab va
serqirra masala
bo'lib, axloq,
sadoqat, adolat
va hokimiyatning
turli jihatlarini
chuqur tahlil
qilish va ko'rib
chiqishni talab
qilgan. O'rta asrlar
G'arb falsafasidagi
murosa
tushunchasi,
axloqiy, siyosiy,
pragmatik va
dialogik jihatlarini
qamrab olgan.***

***Murosa
tushunchasi ko‘p
jihatdan diniy
ta’limotlar bilan
chambarchas
bog‘liq bo‘lib,
uning asosiy
vazifasi insonlar
o‘rtasidagi tinchlik
va hamjihatlikni
ta’minlashga
qaratilgan.***

2. Murosaga erishish jarayoni tomonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va ishonchni yaxshilashga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, kelajakda kuchli munosabatlar va hamkorlikka olib kelishi mumkin.

3. Murosaga kelishning sinergetik xususiyatlari hamkorlikdagi harakatlar va fikr almashishni talab qiladigan murakkab muammolarni samarali hal qilishda yordam beradi. Resurs va tajribani birlashtirib, tomonlar individual harakatlardan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyatli natijalarga erishishlari mumkin.

4. Murosaga kelish jarayoni ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin, chunki tomonlar kelishuvga erishish uchun innovatsion yechimlar va variantlarni izlashga majbur bo‘ladi. Bu muammolarga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va umumiy vaziyatni yaxshilashga yordam beradi.

Shunday qilib, murosaga kelishning sinergik xususiyatlari umumiy maqsadlarga erishish uchun tomonlarning sa’y-harakatlarini birlashtirish, yangi imkoniyatlar hamda yechimlarni yaratish, kollektiv ijodkorlik va samaradorlikni rivojlantirishga yordam berish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Yakuniy qism. Birinchidan, murosa tushunchasi ko‘p jihatdan diniy ta’limotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonlar o‘rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga qaratilgan. Ikkinchidan, o‘rta asrlardagi falsafa murosani axloq normalarining ajralmas qismi sifatida ko‘rgan. Jamiyatda murosa ijtimoiy va shaxsiy munosabatlardagi muvozanatni saqlash vositasi sifatida qadrlangan. Uchinchidan, davrning siyosiy jarayonlarida murosa kelishmovchiliklarni hal qilish va hokimiyatni mustahkamlashning samarali usuli sifatida ishlatilgan. Bu jarayonlarda mutafakkirlar insonning tabiatan murosa qila olish qobiliyatini ta’kidlab, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida ko‘rsatgan. To‘rtinchidan, o‘rta asrlarda murosa tushunchasining rivojlanishi turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida chuqurlashgan. Murosa tushunchasi inson hayotining ma’naviy va dunyoviy qirralarini muvozanatda ushlab vositasi sifatida qaralgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Стёпин В.С. Средневековая западноевропейская философия // Новая философская энциклопедия: в 4 т. – 2-е изд., испр.и доп. – М.: «Мысль», 2010. – С.781.
2. Блаженный Августин. Проповедь 56, на молитву Господню. Перевод, предисловие и комментарии // Вестник Свято-Филаретовского института. – 2024. – Т. 16, вып. 2(50). – С.223–245.
3. Бронзов А.А. Аристотель и Фома Аквинат в отношении к их учению о нравственности. – Санкт-Петербург.: “Типография Ф. Еленского и К”, 1984. – С.118.
4. Макиавелли Николло. Государь. – М.: «Художественная литература», 1982. – С.114.
5. Гнатенко П. Макиавелли о природа человека // Humanities and Social Sciences. 2015. Vol XX, 22 (1/2015). pp.25-32.
6. Зеленков, М.Ю. Социальная конфликтология (базовый курс). – М.: «Юридический институт МИИТа», 2011 – С.7-9.